




Yondosh mavzu:
dizayn.

Koordinata burchagi,
koordinata, nuqta.






1. Bu yerda qanday shakllarni simmetrik deyish mumkin? Nima uchun?



Shaklning yarmi biror o'qqa nisbatan uning ikkinchi yarmi bilan to'liq ustma-ust tushsa, bunday shakl simmetrik shakl deb ataladi.
Bu o'q esa simmetriya o'qi deb ataladi.







2. Bu shakllarni daftaringizga ko'chirib chizing. Ularning qolgan yarmini shunday chizingki, bu shakllar simmetrik bo'lsin.



107. O'qli simmetriya



3. Daftaringizda ushbu shakllarni yasang. Ularda mumkin bo'lgan barcha simmetriya o'qlarini o'tkazing. Bu shakllarning har birida nechtadan simmetriya o'qi bor?



4. Simmetriya o'qi bor barcha harf va sonlarni eslang va daftaringizga yozing.



5. Hisoblang. Bu misollarning qaysilarini simmetrik deyish mumkin?

$$380 \cdot 830$$

$$538\ 880 : 40$$

$$925 \cdot 63 + 63 \cdot 925$$

$$308 \cdot 803$$

$$575\ 757 : 57$$



$$437\ 900 - 252\ 819 : 9$$



6. Simmetrik vitraj yasash uchun 256 bo'lak qizil shisha, 126 bo'lak yashil shisha, yashil shishadan 3 marta ko'p ko'k shisha va yashil shishadan 6 marta ko'p oq shisha tayyorlandi. Vitraj uchun jami necha bo'lak shisha kerak bo'ladi?




7. Shaklning bo'yalgan qismi yuzini toping.





8. Masala tuzing va uni yeching.


	Narxi	Miqdori	Qiymati
	1 630 000 so'm	1	3 090 000 so'm
	?	4	



9. 2 023 sonini chapdan o'ngga ham, o'ngdan chapga ham bir xil o'qiladigan ikki simmetrik sonlar yig'indisi ko'rinishida yozing.



10. Daftaringizda uyning yarmini chizing. Uning o'ng yarmini simmetrik ravishda chizing.



11. Hisoblang. Chapdan o'ngga ham, o'ngdan chapga ham bir xil o'qiladigan so'zlar, jumlar va sonlar nima deb ataladi?
Masalan: 16761, qiziq, "tut aro qora tut".

A $22 \cdot 17$

L $5\ 696 : 8$

O $378 : 14$

D $56 \cdot 31$

M $1\ 057 : 7$

P $1\ 216 : 16$

I $27 \cdot 44$

N $912 : 4$

R $1\ 350 : 45$

76	374	712	1 188	228	1 736	30	27	151
----	-----	-----	-------	-----	-------	----	----	-----